

ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

3/1-son

(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

M. Arslanova	4	Bo'lajak oligofrenopedagoglarda inklyuziv ta'lif kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik mazmuni
N. Kadirova	9	Texnologiya fanining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati
S. Abdirasilov	15	Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik kompetentligi mohiyati va mazmuni
N. Bekmuratov, I. Urinbayev	21	Tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy-metodik tayyorlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari
M. Abralova, Z. Abralova	25	Raqamli transformatsiya sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining sanogen tafakkurini rivojlantirish
M.S. Nimatova	29	Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarida topshiriqlar bajarishida kredit-modul tizimining mazmuni
T. Abdujabborova	34	Uzluksiz ta'lif tizimida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning hamkorlik yo'llari
R. Tuxtasinova	39	Variativ dasturlarni amaliyotda qo'llash ta'lif sifatini oshirish omili sifatida
N. Djanxodjaev	42	Neyropedagogikaning nazariy asoslari
A. Gulyamova	46	Hamkorlik pedagogikasi orqali talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish
B. Xakimova	50	Zamonaviy "Gender" atamasi va o'smirlarni mustaqil qaror qabul qilishiga yo'naltirishning gender muammolari



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

D. Sobirov	54	Pedagogika fanlaridan o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning xususiyatlari
O. Mustafoev	58	Nashrlarda sarlavha va matn munosabatlari: (Samarqand viloyati "Zarafshon", Buxora viloyati "Buxoronomo" gazetalari misolida
K. Po'latova	62	Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining geometrik masalalar vositasida o'quvchilarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishdagi pozitsiyasi
M.T. Nurbayeva	73	Boshlang'ich ta'lifni tashkil etishda sharq mutafakkirlarining odob-axloq masalalariga oid qarashlari
F. Kalandarova	79	Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasinitakomillashtirish mexanizmlari

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

O. Ishmatova	82	Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab-internatlarida tashkil etilgan ritmika mashg'ulotiga doir metodik ishlarning holati
A. Ernazarov	88	Ta'lif sifatini ko'tarish uchun o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish zarur

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

F. Qodirova, S. Ulxo'jaeva	93	Mustaqil ta'limda talabalarning kasbiy-amaliy traektoriyasini individual yo'naltirish masalalari
---------------------------------------	----	--



MADANIYAT, SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI	
S.B. Karimov	97 O'quvchilarning kuylash qobiliyatlarini rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar
MAKATBGACHA TA'LIM	
G.Tilanova	101 Maktabgacha ta'lism tashkilotlarda bolalar nutqini o'stirish orqali fikrlash qobiliyatini shakllantirish
QIYOSIY PEDAGOGIKA	
Sh. Abdujalilova	105 Inklyuziv ta'limning o'zbekiston tajribasi
KORREKSION PEDAGOGIKA	
Z.X. Xusnuddinova	108 Ko'rishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda nutq kamchiliklarini bartaraf etish texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati
M. Dehqanova	112 Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan ishlarni samarali tashkil etishda daktelemali metodikalardan foydalanish
N. Egamberdiyeva	117 Autizm sindromli bolalarning diagnostika jarayonini tashkil etish
D.Pulatova, Z. Komilova	121 Autizm sindromli bolalar uchun sifatli inklyuziv ta'limg muhitining zarurati
	ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
P. Джураев	125 Развитие инновационных технологий в образовании и дальнейшее расширение партнёрства
A. Шин	134 Использование цифровых технологий в дошкольном образовании как основной фактор современной социализации детей
ОХРАНА ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ	
M. Rahimova	140 Важность развития экологического образования и мышления в сознании молодого поколения

Dilfuza PULATOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Zumrad KOMILOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-bosqich talabasi

AUTIZM SINDROMLI BOLALAR UCHUN SIFATLI INKLYUZIV TA'LIM MUHITINING ZARURATI

Annotation

Maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy lashuvida inklyuziv ta'limga ahamiyati ochib berilgan. Xususan, autizm sindromli bolalar inklyuziv ta'limga tolerantlik muhitining yaratilishiga oid ma'lumotlar bayon etilgan.

Tayanch sozlar. Inklyuziv ta'limga, imkoniyati cheklangan, alohida ta'limga ehtiyoji bor bola, aytizm sindromli bola, maktabgacha ta'limga, tolerantlik muhiti.

В статье раскрывается значение инклюзивного образования в социализации детей с ограниченными возможностями здоровья. В частности, представлены данные о создании атмосферы толерантности в инклюзивном образовании детей с синдромом аутизма.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, ребенок с ограниченными возможностями, особыми образовательными потребностями, ребенок с аутистическим синдромом, дошкольное образование, среда толерантности.

The article reveals the importance of inclusive education in the socialization of children with disabilities. In particular, data on creating an atmosphere of tolerance in the inclusive education of children with autism syndrome is presented.

Key words. Inclusive education, a child with disabilities, special educational needs, a child with autistic syndrome, preschool education, environment of tolerance.

Dunyoda inson huquqlari degan oliy tushuncha borki, bu har bir kishining jamiatda mavjud barcha imkoniyatlardan birdek va barcha qatori teng foydalana olishini anglatadi. Imkoniyati cheklangan, alohida ehtiyojli insonlar ham shular jumlasidan. Ularning barchasi jamiyat hayotidagi keng ko'lamli, samarali va teng huquqli ishtirokini cheklaydigan, jismoniy, ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlarga duch keladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, nogiron shaxslar ta'limga, mehnat, sog'iqliqni saqlash hamda ijtimoiy va huquqiy ko'mak kabi asosiy manbalardan teng ravishda foydalana olmaydi. Jamiyat bunday kishilarni boricha qabul qilib, teng munosabatda bo'lishga o'rganmas ekan, mamlakatda inson huquqlari kafolati to'laqonli ta'minlangan, deb bo'lmaydi. Ayniqsa, butun dunyoda nogironligi bo'lgan qariyb 1 milliardga yaqin shaxs borligiga e'tibor qaratsak, bu chindan dolzarb masala ekani ko'zga tashlanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 1 mlnga yaqin kishi yoki umumiyligi aholining 2,3 foizi nogironligi bo'lgan shaxslar deb tan olingan. Uch va undan yuqori yoshdagagi jami aholining 13,5 foizi nogironlikning ma'lum bir shakliga, 3,5 foizi esa nogironlikning og'ir shakliga ega. Kelajakda turli xil jismoniy va ruhiy kamchiliklarga ega shaxslar, nogironlarning soni ortib borishi ham ayni haqiqatdir. Nogiron bolalar uchun ta'limga bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etilishi lozim. Ko'zi ojizlar, kar va eshitish nuqsoniga ega bo'lgan bolalar, poliyemiyelit bilan kasallanganlar, aqli zaif bolalar, nutqida nuqsoni bor bolalarga mo'ljallangan 90 ta maxsus ta'limga muassasalar, 52 ta maxsus bolalar bog'chalari mavjud.

Hozir nogironligi bo'lgan bolalarning umumta'limga maktablari, davlat tipdagisi makta-

bgacha ta'limga tashkilotlariga integratsiyalashuvi, ya'ni inklyuziv ta'limga amaliyatga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Bu jamiyat va davlat tomonidan nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan munosabatni qayta ko'rib chiqish, nafaqat ularning huquqlari tengligini tan olish, balki bunday bolalarga turli sohalar, jumladan, ta'limga ham keng imkoniyatlarni taqdim etish majburiyati bilan ham bog'liq. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida "ta'limga olish har bir insonning huquqi" ekani belgilab qo'yilgan. Bosh qonunimizda ham bu kafolatlanadi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning bir qancha meyyorida ham bu o'z aksini topgan bo'lib, xususan, 50-moddasida inklyuziv ta'limga huquqi belgilandi. Shunday ekan, imkoniyati cheklangan bolalar boshqalar singari bir xil sharoitda ta'limga olishga haqli. Gap faqat ularga bilim berish emas, balki sifatlari ta'limga olishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berish haqida bormoqda. Ya'ni nogironligi bo'lgan bolalar ham sog'lom o'g'il-qizlar kabi qiyalmasdan bog'cha va maktabga borishi, ta'limga olishning barcha imkoniyatlari ega bo'lishi, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yetishmovchiligiga duch kelmasligi zarur.

Mamlakatimizda muktabgacha yoshdagi alohida ehtiyoja muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash va ularning inklyuziv ta'limgini rivojlantirishga e'tibor qaratib kelinmoqda. "Biz hammamiz boshqachamiz, ammo barchamiz tengmiz" – ushbu fikr mamlakatimizning alohida ehtiyoja muhtoj bolalar ta'limga-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha muktabgacha ta'limga tashkilotlarining asosiy shioriga aylangan deb aytishimiz mumkin.

Shu o'rinda inklyuziv ta'limga tushunchasiga to'xtab o'tishni joiz deb bildik. Ushbu so'z "uyg'unlashmoq", "uyg'unlashtirmoq", "jalb qilmoq" ma'nolarini beradi. Ya'ni, alohida ehtiyoja muhtoj bo'lgan va sog'lom bolalarning birgalikdagagi ta'limga shaklidir. Bunda rivojlanishida uchraydigan psixik yoki jismoniy nuqsonlardan qat'i nazar, imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan ommaviy ta'limga muassasalarida o'quv jarayoniga jalb etiladi.

Inklyuziv ta'limga - alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni o'qitishning eng ilg'or shakli bo'lib, o'quv jarayonida bolalar, ota-onalar va pedagoglar birgalikda tadbirda faol ishtiroy etishadi.

Inklyuziv ta'limga asosiy maqsadi - alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olish uchun sharoit yaratishdir. Ushbu sharoitda alohida yordamga muhtoj bolalarni integratsiyalash va reabilitasiya qilish, har bir bolaning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularga mos samarali inklyuziv talim turini tanlash lozim.

Inklyuziv ta'limga quyidagi afzalliklari alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ham, me'yorda rivojlangan bolalar uchun ham birdek tegishlidir:

- ijtimoiy imtiyozlar: bolalarga yordam ko'rsatishda mustaqillikni rivojlantirish, ijtimoiy tajribalarni umumlashtirish, sabr-toqat va tolerantlikni rivojlantirish;

- psixologik foydalar: ustunlik tuyg'usini shakllantirishdan ochish yoki kamlik tuyg'usini rivojlantirish;

- tibbiy foydalar: ijtimoiy ma'qul xulq-atvorni taqpid qilish;

- pedagogik afzalliklar: har bir bolaning rivojlanishini o'ziga xos jarayon sifatida ko'rib chiqish (bolalarni bir-biri bilan taqqoslashdan bosh tortish).

T.G.Zubareva, N.G.Petelina va N.V.Efremovaning ta'kidlashicha, alohida ta'limga ehtiyojli bolalarning sifatlari ta'limga olishi uchun zarur shart-sharoitlar talab etiladi. Ularning nuqtayi nazariga ko'ra, inklyuziv ta'limga qulay psixologik muhit yaratadigan tolerantlikning darjasasi muhim rol o'ynaydi.

Tolerantlik muhiti o'quv jarayonining barcha ishtiroychilari ya'ni, alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning tengdoshlari, ularlarning ota-onalari, pedagoglar va mu-taxassislar bag'rikenglikka ega bo'lgandagina yaratilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagি autizm sindromli bolani sog'lom bolalar bilan umumiي tip-dagi ta'lim muhitiga jalb qilish orqali inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradi. Ish bolalarning individual dasturlari bo'yicha bilim olishlarigaimkon beradi-gan amaliy xatti-harakatlar tahlili asosida qurilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inkluziya quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

- vaqtinchalik-bola o'yinlarda, bayramlarda, sayrda jamoada bo'lishi mumkin;
- qisman-bola to'liq bo'lмагan kuni tengdoshlari bilan bo'ladi, vizual, musiqiy va motorli mashg'ulotlarda qatnashadi;
- to'liq-bolaning doimiy guruhga kechayu-kunduz tashrifi.

Amaliyotda ko'proq vaqtinchalik va qisman inklyuziyadan foydalanilishini kuzatis-himiz mumkin. Ta'lim va ijtimoiy dasturlarga moslashganda, bola maxsus pedagog yoki (tyutor)? bilan birgalikda muayyan faoliyat turlari bo'yicha doimiy guruhga kiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, inklyuziya paytida barcha tomonlarning manfaatlari hisobga olinadi, shuning uchun alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bola tayyor bo'lgunga qadar u qo'shma darslarga jalb qilinmaydi, eng muhim jihat esa-bu ma'lum bir vaqt istalgan xatti-harakatlarning yo'qligidir. Bolalar bir-biriga yordam berib, o'talarida yaqin munosabatlar rivojlanadi, bir-birlariga bo'lgan ishonch paydo bo'ladi, hissiy adovat asta-sekin yo'qoladi, bolalar o'zaro farqlarga e'tibor berishni to'xtatish orqali bag'rikeng va chidamlı bo'lishadi.

Autizmga chalingan bolalarni ijodiy faoliyat, sport tadbirlari, frontal mashg'ulotlar va o'yinlarga integrasiyalash bilan bir qatorda quyidagi ish shakllaridan ham foydalanish mumkin:

- tematik video-resurslardan foydalangan holda, autizm muammosi haqidagi mult-film va filmlarni tomosha qilish. Ushbu guruh ishi usuli bolalarning o'zlarida va atrofida sodir bo'layotgan voqealar to'g'risida ijtimoiy-psixologik voqelik va hodisalar to'g'risida xabardorligini kengaytirishga yordam beradi;
- ijodiy ishlар ko'rgazmasi: "dunyo autizm bilan kasallangan bolaning nigohi bilan", "biz boshqachamiz, lekin biz birmamiz", "moviy rangda rang" va boshqalar;
- ertak terapiyasining elementlari;
- badiiy adabiyotdan foydalanish, do'stlik, munosabat va o'zaro tushunish va bos-hqalar;
- ijtimoiy harakatlar, bayramlar.

Ota-onalar bilan ish olib bormay turib bolalarda tolerantlikni shakllantirish mumkin emas. Ular bola uchun asosiy namunadirlar. 2013-yilda E.N.Morgacheva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlарida inklyuziv ta'lim g'oyasi va nogiron bolalarning xususiyatlari to'g'risida yetarli tushunchaga ega bo'lishlariga qaramay, ota-onalarning alohida ta'lim ehtiyojli bolalarga munosabatlari neytral yoki salbiy bo'lishi aniqlangan. Inklyuziv ta'lim jarayonida ko'pincha sog'lom bolalarning ota-onalari autizm sindromli bolalar to-monidan namoyish etiladigan hissiy-emotsional sohaning o'ziga xos xususiyatlaridan cho'chishadi. Shuning uchun ham bolalarda bag'rikenglikni tarbiyalashda pedagoglar ning ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishlari lozim bo'ladi. Bunda ota-onalar bilan ishslashning turli shakllarini qo'llash mumkin: ota-onalarning tematik yig'ilishlari, adabiyot ko'rgazmalari, qo'shma bayramlar, ota-onalar bilan individual ishlар.

Autizm sindromli bolalarning inklyuziv ta'limi ularning ijtimoiy moslashuvi darajasi ni oshirishga, yetarli ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini mustahkamlashga imkon beradi, sog'lom bolalar boshqa bolalarning rivojlanish xususiyatlariga, o'zaro yordam berishga moyil bo'lishni o'rganadilar va ularda o'zaro bag'rikenglik shakllana boshlaydi.

Shunday ekan autizm sindromli bolalarga nafaqat sifatli ta'lim berish, balki jamiyat ularni barcha qatori qabul qilishi, ular ham shu yurtning teng huquqli fuqarosi sifatida barcha imkoniyatlardan birdek foydalanishiga erishish maqsad qilinishi lozim. Har bir maktabgacha ta'lim muassasasi esa inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat olib borishga tayyor turishi va autizm sindromli bolalarning rivojlanishi, to'laqonli ijtimoiylashuviga hissa qo'shishni oliv maqsad deb bilmog'i lozim. Zero, bugun ta'limning har qanday shakli rivojiga e'tibor ortib, unga barkamol avlod kamolidagi asosiy vosita sifatida qara-layotgani ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., Maxkamovna, M. D. (2022). Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 834-842.
2. Pulatova , D. ., To'raqulova, D. ., Mammadiyeva, D. ., Abduvaxobova, N. (2023). Inklyuziv ta'limning terminologik asoslari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 60–62. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/13970>
3. Pulatova, D. ., To'raqulova , D. ., Najmiddinova , N. ., Ikromova, F. . (2023). Inklyuziv ta'limda aktdan foydalanish. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 84–86. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/14040>
4. Pulatova, D., To'raqulova, . D., Saydalova, B. ., & Zuhriddinova, D. . (2023). Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarni saralash. Наука и инновация, 1(6), 80–82. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14418>
5. Kodirova F.U, Fayzieva U.Y, Pulatova D.A, Ibadullaeva Sh.N, Khusnuddinova Z.H. Inclusive education: theory and practice. Journal of Advanced Zoology. // ISSN: 0253-7214. Volume 44 Issue S7 Year 2023 Page 660:664
6. Kodirova F.U, Pulatova D.A, Khusnuddinova Z.H. Increasing The Profitability Of The Learning Environment Through The Organization Of Adaptive Education In The Conditions Of Inclusion. Journal of Advanced Zoology. // ISSN: 0253-7214. Volume 44 Issue S7 Year 2023 Page 615:620